



FARG'ONA VODIYSIDA SANOAT KORXONALARINI YASHIL BOSHQARUV TIZIMIGA O'TKAZISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI

Muallif: Kamoliddin Nuriddinov¹

Affiliyatsiya: Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti o'qituvchisi va mustaqil tadqiqotchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17350635>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Farg'ona vodiysi sanoat korxonalarini "yashil boshqaruv tizimi"ga o'tkazishning iqtisodiy afzalliklari keng tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — mintaqadagi sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavflarni kamaytirish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Maqolada O'zbekistonda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" (PQ-4477) doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot banki, OECD, BMT) bilan hamkorlikdagi dasturlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, sanoat korxonalari, boshqaruv tizimi, iqtisodiy afzalliklar, Farg'ona vodiysi, barqaror rivojlanish, resurslardan samarali foydalanish.

KIRISH

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishning barqaror shaklini ta'minlash maqsadida yashil iqtisodiyotga o'tish yo'llini tanlamoqda. Bu jarayon sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi¹.

Global jihatdan yashil iqtisodiyotga o'tish — ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida qabul qilinmoqda. O'zbekiston ham 2019-yilda "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"ni tasdiqladi (PQ-4477) va bu strategiya bilan energiya samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish kabi yo'nalishlar belgilandi².

Farg'ona vodiysi sanoat jihatdan rivojlangan hudud sifatida yashil boshqaruv tizimiga o'tish uchun katta imkoniyatlarga ega³. Bu jarayon korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Maqolaning maqsadi — Farg'ona vodiysi sanoat korxonalarini yashil boshqaruv tizimiga o'tkazishning iqtisodiy afzalliklarini aniqlash va ushbu jarayonni amaliy ravishda targ'ib qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishidir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). O'zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-4477-soni qarori, 2019-yil 4-oktabr. – olingan manba: <https://lex.uz/docs/7582760>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, PQ-4477, 4-oktabr 2019. – olingan manba: <https://lex.uz/docs/-4539502>

³ "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "yashil iqtisodiyot"ga o'tishga oid maqsadlar va chora-tadbirlari. – olingan manba: <https://president.uz/oz/lists/view/5805>

ASOSIY QISM

Energiya samaradorligi va qonuniy infratuzilmalar

Sanoat korxonalari yashil boshqaruv tizimiga o'tishda eng muhim jihatlardan biri energiya samaradorligini oshirishdir. Hozirgi kunda sanoat tarmog'i umumiy energiya iste'molining katta qismini tashkil etadi, bu esa resurslardan oqilona foydalanish zaruratinini kuchaytiradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda bu borada muhim huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. 2024-yilda "Energiya samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, ishlab chiqarish korxonalarida energiya sarfini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish va texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilish asosiy yo'naliш sifatida belgilandi⁴.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi huzurida Energiya samaradorligi milliy agentligi tashkil etilishi rejalashtirilgan bo'lib⁵, uning asosiy vazifasi korxonalarda energiya tejamkorlik loyiҳalarini qo'llab-quvvatlash va xalqaro tajribalarni joriy etishdan iborat.

Farg'ona vodiysi sanoat korxonalari uchun bu yo'naliш ayniqsa muhim, chunki mintaqa ishlab chiqarish salohiyati yuqori bo'lishiga qaramay, ko'plab korxonalar hali ham eski texnologiyalarga tayanmoqda. Yashil boshqaruv tizimiga o'tish energiya xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ekologik xavflarni kamaytirish imkonini beradi⁶.

Sanoat korxonalarida texnologik yangilanishlar va yashil innovatsiyalar

Sanoat korxonalarini yashil boshqaruv tizimiga o'tkazishda texnologik modernizatsiya va innovatsiyalar muhim o'rinn tutadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, chiqindilarni qayta ishlash va resurslardan samarali foydalanish bo'yicha keng ko'lamli dasturlar amalga oshirilmoqda.

Farg'ona vodiysi sanoatida modernizatsiya jarayonlari amalda ko'zga tashlanmoqda. Masalan, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi quvurlar, saqlash tanklari va ekologik ko'rsatkichlarni yaxshilovchi uzellarni yangilash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirmoqda; zavod 2023 yil oxiridan boshlab AI-80/AI-92 benzin ishlab chiqarishni kuniga 1000 tonnagacha oshirishini bildirgan⁷. Bu kabi modernizatsiya ishlarining maqsadi mahsulot sifatini (Euro-5 talablari) hamda energiya va xomashyo sarfini optimallashtirishdir⁸.

Yashil innovatsiyalarni moliyalashtirish masalasida xalqaro institutlar mamlakatga texnik va institutsional ko'mak ko'rsatmoqda. Jahon banki 2023 yilda O'zbekistonda "inklyuziv yashil o'sish" kun tartibi doirasida siyosiy-institutsional islohotlarni qo'llab-quvvatlashini, OECD⁹ esa "yashil o'tish"ni moliyalashtirishda xususiy kapital rolini kuchaytirish zarurligini ta'kidladi¹⁰. Shuningdek, Osiyo Taraqqiyot

⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi. (2024). "Energiya samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qonun, ORQ-871-son. – olingan manba: <https://lex.uz/docs/7052085>

⁵ Sputnik Uzbekistan. (2025). O'zbekistonda Energiya samaradorligi milliy agentligi tashkil etiladi. – olingan manba: <https://oz.sputniknews.uz/20250402/energiya-samaradorlik-milliy-agentlik-48696236.html>

⁶ O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2024). Energiya samaradorligi sohasidagi ustuvor yo'naliшlar. – olingan manba: <https://minenergy.uz/oz/pages/view/31375>

⁷ Fergana Oil Refinery. (2024). Modernization of the Fergana Oil Refinery: a new generation of tanks (Press-center). – olingan manba: <https://www.fnpz.uz/en/press-center/news/993-modernization-of-the-fergana-oil-refinery-a-new-generation-of-tanks>


⁸ Oil & Gas Journal. (2022). Newly privatized Uzbek refinery begins major modernization. – olingan manba: <https://www.ojg.com/refining-processing/article/14285712/newly-privatized-uzbek-refinery-begins-major-modernization>

⁹ OECD. (2023). Financing Uzbekistan's Green Transition. – olingan manba:

https://www.oecd.org/en/publications/2023/12/financing-uzbekistan-s-green-transition_6ebf6b94.html

¹⁰ The World Bank. (2023). Uzbekistan: Realizing an Inclusive Green Growth Transition (Results story). – olingan manba: <https://projects.worldbank.org/en/results/2023/10/26/uzbekistan-realizing-an-inclusive-green-growth-transition>

Bankining iqlim o'tishini tezlashtirishga qaratilgan dasturlari energetika samaradorligi va sanoatni dekarbonizatsiya qilish bo'yicha institutsional sharoitlarni kuchaytirishga qaratilgan¹¹.



1-rasm. Farg'ona viloyati, Toshkent, Shymkent va O'sh shaharlarida yashil o'sish ko'rsatkichlari (2019–2024)¹²

1-rasmda Farg'ona viloyati, Toshkent, Shymkent va O'sh shaharlarida 2019–2024-yillar davomida yashil iqtisodiyotga o'tish ko'rsatkichlari taqqoslab ko'rsatilgan. Ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, Farg'ona viloyatida qayta tiklanuvchi energiya quvvatining o'sish sur'ati 16 foizni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich Toshkent shahridagi 12 foizlik natijadan yuqoridir. Shuningdek, Shymkentda bu ko'rsatkich 14 foiz, O'sh shahrida esa 9 foizni tashkil etmoqda.

Sanoat energiya intensivligi bo'yicha barcha hududlarda pasayish kuzatilgan, bu esa energiya samaradorligining oshayotganini bildiradi. Eng katta ijobiy o'zgarish Farg'onda -7 foiz, eng kichigi O'shda -4 foiz atrofida qayd etilgan. Yashil innovatsiyalar rivojlanishida esa Toshkent yetakchilik qilmoqda (28%), bu poytaxtda startaplar, texnoparklar va xalqaro hamkorlik dasturlarining yuqori faolligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, Farg'ona viloyati va Toshkent shahri o'rtasidagi natijalar O'zbekistonning mintaqaviy yashil rivojlanish siyosati samaradorligini aks ettiradi. Bu jarayonni yanada jadallashtirish uchun texnologik yangilanishlarni kichik va o'rta korxonalarga kengroq tatbiq etish zarur.

Moliyaviy va iqtisodiy afzalliklar

¹¹ Asian Development Bank. (2024). Accelerating the Climate Transition for Green, Inclusive Growth Program (Uzbekistan), Project 58125-001. – olingan manba: <https://www.adb.org/projects/58125-001/main>

¹² Eslatma: Grafik muallif tomonidan ishlab chiqilgan (muallif kuzatuvlari asosida) bo'lib, ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, Gazeta.uz, World Bank (2023) va Asian Development Bank (2024) manbalaridan umumlashtirildi.

Yashil boshqaruv tizimini joriy etish nafaqat ekologik, balki moliyaviy va iqtisodiy jihatdan ham foydalidir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqarish xarajatlarini 10–15 foizgacha qisqartirishi mumkin¹³. O'zbekiston sanoatida bu jarayonning iqtisodiy ta'siri ayniqsa energiya tejamkor texnologiyalarni tatbiq etgan korxonalarda yaqqol sezilmoqda.

Farg'ona vodiysi misolida, modernizatsiya qilingan neftni qayta ishlash va to'qimachilik korxonalar elektr energiyasi sarfini 6–8 foizga qisqartirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirgan¹⁴. Shu bilan birga, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash korxonalar uchun soliqqa oid rag'batlar va subsidiyalar olish imkoniyatini ham yaratmoqda. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan "yashil investitsiya loyihalari"ga ajratilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmi 1,2 trillion so'mni tashkil etgan¹⁵.

Xalqaro moliya institutlari ham O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini faol qo'llab-quvvatlamоqda. Jahon banki 2023-yilda "UzGreen" dasturi doirasida energiya samaradorligi va atrof-muhitni muhofaza qilish loyihalarini moliyalashtirish uchun 400 million AQSh dollari miqdorida kredit liniyasini ajratdi¹⁶. Shuningdek, Osiyo Taraqqiyot Banki tomonidan 2024-yilda "Accelerating Climate Transition for Green Growth" dasturi doirasida 300 million dollarlik qo'shimcha moliyaviy yordam ajratildi¹⁷.

Iqtisodiy afzallikkarning yana bir muhim jihat – yangi ish o'rinalining yaratilishidir. Energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash va qayta tiklanuvchi energiya tarmoqlarida ish bilan ta'minlanganlar soni so'nggi besh yilda 25 foizga oshgan¹⁸. Bu tendensiya Farg'ona vodiysi kabi sanoat mintaqalarida aholi turmush darajasini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim rol o'ynaydi.

MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida sezilarli natijalarga erishilgan bo'lsa-da, hali ham tizimli muammolar mavjud. Eng avvalo, iqtisodiyotning energiya intensivligi yuqoriligi va ekologik menejment tizimlarining sustligi ishlab chiqarish samaradorligini cheklamoqda¹⁹. Yashil texnologiyalarni joriy etish uchun dastlabki investitsiyalar yuqoriligi sababli ko'plab kichik va o'rta korxonalar bu jarayonga kirishishda qiynalmoqda, xalqaro kredit liniyalari esa asosan yirik loyihalar bilan cheklamoqda²⁰.

¹³ OECD. (2022). *Financing Climate Action in Uzbekistan*. – Paris: OECD Publishing. – olingan manba: <https://www.oecd.org/environment/financing-climate-action-in-uzbekistan.htm>

¹⁴ Fergana Oil Refinery LLC. (2023). *Energy efficiency improvements in refining processes*. – olingan manba: <https://www.fnpz.uz/en/news/energy-efficiency-improvements>

¹⁵ Asian Development Bank. (2024). *Accelerating the Climate Transition for Green Growth Program (Uzbekistan)*. – olingan manba: <https://www.adb.org/projects/58125-001/main>

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2023). *Yashil investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash dasturi haqidagi*. – olingan manba: <https://www.mf.uz/oz/press/news/view/3497>

¹⁷ The World Bank. (2023). *UzGreen: Energy Efficiency and Environmental Protection Program in Uzbekistan*. – olingan manba: <https://projects.worldbank.org/en/projects-operations/project-detail/P179209>

¹⁸ United Nations Development Programme (UNDP). (2024). *Green Jobs and Inclusive Growth in Central Asia*. – olingan manba: <https://www.undp.org/eurasia/green-jobs-central-asia>

¹⁹ UNECE. (2023). *Environmental Performance Review of Uzbekistan (3rd Cycle)*. – olingan manba: <https://unece.org/environment-policy/publications/environmental-performance-review-uzbekistan-2023>

²⁰ The World Bank. (2023). *Uzbekistan Green Transition Support Program*. – olingan manba: <https://projects.worldbank.org/en/projects-operations/project-detail/P179209>

Shuningdek, korxonalar rahbarlarining atigi 37 foizi energiya samaradorligi va chiqqindilarni qayta ishlash masalasini o'z strategik rejalariga kiritgan²¹. Bu holat ekologik ong va boshqaruv madaniyatining yetarli emasligini ko'rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

1. Yashil texnologiyalarni joriy etuvchi KOB subyektlari uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalarni kengaytirish;
2. ISO 14001 asosida ekologik menejment tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish;
3. Farg'ona vodiysi sanoat zonalarida yashil innovatsiyalar klasterlari va trening markazlarini tashkil etish.

Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, mintaqalarda yashil iqtisodiyotning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

XULOSA

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni, xususan Farg'ona vodiysi sanoat korxonalarida, iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishga qaratilgan muhim bosqichga kirgan. So'nggi yillarda energiya samaradorligi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik sohalarida ijobjiyligini siljishlar kuzatilmoqda.

Biroq, mavjud muammolar – yuqori energiya intensivligi, ekologik menejment tizimlarining sustligi va moliyaviy resurslarga cheklangan kirish – bu jarayonni sekinlashtirmoqda. Shu bois, yashil texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash, ekologik standartlarni kengaytirish hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarining ekologik madaniyatini oshirish zarur. Farg'ona vodiysi misolida ko'rindiki, yashil boshqaruv tizimiga o'tish nafaqat ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, balki yangi ish o'rinnari yaratish, innovatsiyalarni faollashtirish va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asian Development Bank (ADB). (2024). *Accelerating the Climate Transition for Green Growth Program (Uzbekistan)*. – olingan manba: <https://www.adb.org/projects/58125-001/main>
2. Center for Economic Research and Reforms (CERR). (2023). *O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari*. – Toshkent: CERR nashriyoti. – olingan manba: <https://review.uz/post/green-economy-uzbekistan>
3. Fergana Oil Refinery LLC. (2023). *Energy efficiency improvements in refining processes*. – olingan manba: <https://www.fnpz.uz/en/news/energy-efficiency-improvements>
4. International Energy Agency (IEA). (2024). *Energy Policy Review: Uzbekistan 2024*. – Paris: IEA Publications. – olingan manba: <https://www.iea.org/reports/energy-policy-review-uzbekistan-2024>
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2023). *Yashil investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash dasturi haqida*. – olingan manba: <https://www.mf.uz/oz/press/news/view/3497>

²¹ Center for Economic Research and Reforms (CERR). (2023). *O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari*. – olingan manba: <https://review.uz/post/green-economy-uzbekistan>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). *2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida* PQ-4477-son qaror, 4-oktabr 2019-yil. – olingan manba: <https://lex.uz/uz/docs/4539502>
7. The World Bank. (2023). *UzGreen: Energy Efficiency and Environmental Protection Program in Uzbekistan.* – olingan manba: <https://projects.worldbank.org/en/projects-operations/project-detail/P179209>
8. United Nations Development Programme (UNDP). (2024). *Green Jobs and Inclusive Growth in Central Asia.* – olingan manba: <https://www.undp.org/eurasia/green-jobs-central-asia>
9. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). (2023). *Environmental Performance Review of Uzbekistan (3rd Cycle).* – Geneva: UNECE. – olingan manba: <https://unece.org/environment-policy/publications/environmental-performance-review-uzbekistan-2023>
10. OECD. (2022). *Financing Climate Action in Uzbekistan.* – Paris: OECD Publishing. – olingan manba: <https://www.oecd.org/environment/financing-climate-action-in-uzbekistan.htm>

NORDIC INTERNARTIONAL UNIVERSITY

